



MECHANISMS FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS IN PRESCHOOL EDUCATION

Moydinova Elmira Kamariddinovna

PhD, Acting Associate Professor

Uzbekistan State World Languages University

moydinova@uzswlu.uz

ORCID 0009-0009-2794-6721

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17838550>

ARTICLE INFO

Received: 05th October 2025

Accepted: 10th October 2025

Online: 13th October 2025

KEYWORDS

Professional competence,
educational web resources,
English teacher, digital
literacy, innovative
technologies, preschool
education, methodological
training, communicative
approach, pedagogical
experiment, teaching
process.

ABSTRACT

This article analyzes the significance and effectiveness of using educational web resources in the process of developing the professional competence of future English language teachers studying in the field of preschool education. The findings of the experimental research demonstrate that web-based learning activities positively influence the development of students' methodological preparation, digital skills, and communicative competence. Furthermore, the study substantiates the necessity of enhancing digital literacy, applying interactive methods, and integrating innovative technologies into the educational process as part of the professional training of future educators. The article also outlines the stages of the experimental study, principles of organizing educational activities, and methodological recommendations for modernizing the curriculum in the "Foreign Language (English) in Preschool and Primary Education" program. The obtained scientific results confirm that the use of web resources is an effective tool for developing the professional competence of future English language teachers.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Moydinova Elmira Kamariddinovna

PhD, Acting Associate Professor

Uzbekistan State World Languages University

moydinova@uzswlu.uz

ORCID 0009-0009-2794-6721

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17838550>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 05th October 2025
Accepted: 10th October 2025
Online: 13th October 2025

KEYWORDS

Профессиональная компетенция, образовательные веб-ресурсы, преподаватель английского языка, цифровая грамотность, инновационные технологии, дошкольное образование, методическая подготовка, коммуникативный подход, педагогический эксперимент, учебный процесс.

В данной статье проанализированы значение и эффективность использования образовательных веб-ресурсов в процессе развития профессиональной компетентности будущих учителей английского языка, обучающихся по направлению дошкольного образования. Результаты проведённых экспериментально-опытных работ показали, что занятия, организованные на основе веб-ресурсов, оказывают положительное влияние на формирование методической подготовки, цифровых навыков и коммуникативной компетенции студентов.

Кроме того, обоснована необходимость развития цифровой грамотности, применения интерактивных методов и внедрения инновационных технологий в образовательный процесс в рамках профессиональной подготовки будущих педагогов. В статье также представлены этапы экспериментально-опытной работы, принципы организации учебных занятий, а также методические рекомендации по модернизации содержания обучения по направлению «Иностранный язык (английский) в дошкольном и начальном образовании». Полученные научные результаты подтверждают, что использование веб-ресурсов является эффективным средством развития профессиональной компетентности будущих учителей английского языка.

**MAKTABGACHA TA'LIMDA BO'LAJAK INGLIZ TILI
O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARI**

Moydinova Elmira Kamariddinovna

PhD, v.b. dotsent

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
moydinova@uzswlu.uz

ORCID 0009-0009-2794-6721

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17838550>

ARTICLE INFO

Received: 05th October 2025
Accepted: 10th October 2025
Online: 13th October 2025

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining



KEYWORDS

Kasbiy kompetensiya, ta'lim veb-resurslari, ingliz tili o'qituvchisi, raqamli savodxonlik, innovatsion texnologiyalar, maktabgacha ta'lim, metodik tayyorgarlik, kommunikativ yondashuv, tajriba-sinov, pedagogik jarayon.

kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida ta'limiy veb-resurslardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot chog'ida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida veb-resurslarga asoslangan mashg'ulotlar talabalarning metodik tayyorgarligi, raqamli ko'nikmalari hamda kommunikativ kompetensiyalarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shu bilan birga, bo'lajak pedagoglar uchun kasbiy tayyorgarlik jarayonida raqamli savodxonlikni rivojlantirish, interfaol usullarni qo'llash va innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etishning zarurligi asoslab berilgan. Maqolada tajriba-sinov jarayonining bosqichlari, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish tamoyillari, shuningdek, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili" yo'nalishida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishga doir metodik tavsiyalar bayon etilgan. Olingan ilmiy natijalar veb-resurslardan foydalanish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanini tasdiqlaydi.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari va ta'lim sohasidagi kuchayib borayotgan raqobat sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida faoliyat yurituvchi ingliz tili o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi bolalarda chet tiliga bo'lgan dastlabki qiziqishni shakllantirish, ularni og'zaki nutqqa yo'naltirish hamda elementar kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiiy bilishga chanqoqligi, eslab qolish qobiliyatining yuqoriligi va o'yin orqali tez o'zlashtirish xususiyati ushbu bosqichda o'qituvchining lingvistik, pedagogik va psixologik kompetensiyalarining alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Mazkur kompetensiyalar tizimi nafaqat til bo'yicha nazariy bilimlarni, balki bolalar psixologiyasini chuqur anglash, samarali pedagogik muloqot olib borish, shuningdek, zamonaviy interfaol metodlar va texnologiyalarni qo'llash mahoratini ham o'z ichiga oladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida pedagogik kompetensiyaning asosiy komponentlari: kommunikativ, refleksiv, metodik va ijtimoiy kompetensiyalar, o'zaro integratsiyada shakllantirilishi lozim. Bunday yondashuv o'qituvchiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya faoliyatini mazmunan samarali tashkil etish, bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish, nutq faolligini oshirish va chet tilini o'rganishga ijobiy motivatsiya yaratish imkonini beradi [3].



O'zbekiston ta'lim tizimida erta yoshdan chet tilini o'rgatishga qaratilgan e'tibor kuchaygani bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi faqat bilim, ko'nikma va malakalar majmui bilan chegaralanmay, balki bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonni psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda samarali tashkil etish qobiliyatini ham qamrab oladi. Ushbu kompetensiyani ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish hamda uni rivojlantirishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida baholanadi.

Nemis pedagogik maktabi bo'yicha olib borilgan ilmiy adabiyotlar tahlili "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining Genrix Rot (Heinrich Roth) va Manfred Lyovish (Manfred Löwisch) tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlarga tayangan holda shakllanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Genrix Rot nazariyasida "kompetentlik" tushunchasi ilk bor nazariy pedagogikaga kirib kelgan bo'lib, u mazkur fenomenni "tajriba, samaradorlik, tanqidiy fikrlash va tarbiyaviy faoliyat uchun mas'uliyatning uzviy birligi" sifatida talqin qiladi [12; 503]. Manfred Lyovish esa kompetentlikni ikki bosqichdan iborat sifatida izohlaydi: birinchi bosqich turli kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi malakalar yig'indisini o'z ichiga olsa, ikkinchi bosqich shaxsning o'zi bilan chambarchas bog'liq tarbiyaviy vazifani anglatadi [6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kasbiy kompetensiya masalasi va uning ko'p qirrali jihatlari nafaqat mamlakatimiz pedagog olimlari, balki MDH davlatlari hamda xorijiy tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida ham doimo dolzarb mavzu sifatida o'rganib kelinmoqda. Xususan, kasbiy kompetensiya (N.A. Muslimov, F.X. Ibragimova, A.K. Markova, V.A. Yakunin), metodik kompetensiya (M.S. Berdibayev, K.T. Umataliyeva, Yu.Yu. Kovaleva); psixologik kompetensiya (O.Ye. Haitov, I.F. Demidova, A.V. Gutko, A.D. Alferov), kommunikativ kompetensiya (L.T. Axmedova, D.A. Tadjibayeva, X.A. Yulbarsova, U.X. Mingboyev, Yu.I. Yemelyanov, S.L. Bratchenko, G.S. Trofimova, Ya.V. Taraskina, I.V. Alexina, T.P. Popova), sosiolingvistik kompetensiya (K.Dj. Riskulova, L.F. Zuyeva, I.A. Isenko, N.V. Nabatova), ijtimoiy-madaniy kompetensiya (N.P. Abdimuratova, S.A. Ziyayeva, S.E. Chexova, S.V. Paxotina, M.V. Bolina, L.A. Borxodoyeva), informasion kompetensiya (A.M. Orobinskiy, D.V. Golubin, N.L. Greylix), axborot-kommunikativ kompetensiya (I.A. Eshmamatov, S.V. Kalmykova), mafkuraviy kompetensiya (D.M. Mamatqulov), badiiy-estetik kompetensiya (F.T. Rabbimova, D.V. Рыжов), frazeologik kompetensiya (U.U. Jumanazarov) hamda lingvodidaktik kompetensiya (K. Joldoshbayeva) bo'yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan.

A.N. Pisarenko kasbiy kompetentlikni "mutaxassisning kasbiy faoliyati sharoitida dinamik ravishda o'zgarib borayotgan jamiyatda erkin harakatlanish, shaxsiy salohiyatni to'liq namoyon etish va jamiyat ehtiyojlariga moslashish imkonini beruvchi sifatlar majmui" sifatida ta'riflaydi [10]. Shu nuqtai nazardan, kasbiy kompetentlikning



rivojlanishi muhit bilan bog'liq uzluksiz jarayon bo'lib, pedagogning o'z ustida muntazam ishlashi, bilim va malakalarini mustaqil ravishda boyitib borishi zarur hisoblanadi.

O.I. Mezenseva va Ye.V. Kuznesova monografiyasida oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim mazmuni va texnologiyalarini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari bayon etilib, unda asosiy vazifa innovatsion fikrlovchi, raqobatbardosh shaxsni tayyorlashdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Mualliflar o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish monitoringini yo'lga qo'yish hamda pedagogning "men-konsepsiyasi"ni shakllantirishga xizmat qiluvchi maxsus texnologiyalarga asoslangan yangi modelni yaratishni taklif etadi [7; 158].

V.Ya. Adolf kasbiy kompetensiyaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi:

- ruhiy bosimni kamaytiruvchi va hissiy barqarorlikni oshiruvchi omil;
- kognitiv jarayonlar bilan kasbiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik shakli;
- talaba va mutaxassis faoliyatini tartibga soluvchi mexanizm [1; 51].

V.N. Shashok va I.Ny. Sapun kompetensiyani bir qator o'zaro bog'langan tarkibiy qismlarning majmui sifatida talqin etib, uni shaxsning ma'lum faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi bilim, ko'nikma, shaxsiy sifatlar va tajriba yig'indisi sifatida baholaydi [13; 7].

Bizning tadqiqot ishimiz bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga qaratilgan bo'lgani sababli, mazkur jarayonda kasbiy kompetensiyaning shakllanishi alohida ilmiy tahlilni talab qiladi. Keyingi paragrafda bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi kompetensiyasining tarkibi, rivojlanish mexanizmlari va ilmiy-nazariy asoslari batafsil ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida faqat jahon tajribasi va zamonaviy metodik yondashuvlarni joriy etish emas, balki mavjud muammolarning samarali yechimini topish ham muhim vazifa sanaladi.

Maktabgacha ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tuzilmasini yaratish masalasida xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning fikrlari tadqiqotimiz uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qildi. Xususan, ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasiga oid nazariy yondashuvlar Ye.A. Kostina, G.G. Azizova, O.Ye. Lomakina, S.N. Aliyev, M.A. Abdullayeva, F.X. Ibragimova, N.V. Xaritonova va Ye.S. Mityushovanning ilmiy qarashlari asosida o'rganildi.

Chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning tarkibiy tuzilmasi motivasion-qiyamatli, kognitiv, faoliyatga yo'naltirilgan, jarayonli va refleksiv komponentlar asosida bosqichma-bosqich tahlil qilindi. K.Dj. Riskulova tilni shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonining muhim elementi sifatida baholab, til ijtimoiy integratsiyaning asosiy mexanizmlaridan biri ekanini ta'kidlaydi [11; 132]. Shu jihatdan, bo'lajak mutaxassisning lingvistik, metodik, ijtimoiy va texnologik tayyorgarligi bir butun tizim sifatida qoraladi.

Bo'lajak o'qituvchini tayyorlash masalasi tarixan dolzarb bo'lib kelgan. XVIII asrning o'rtalaridan boshlab maxsus pedagogik muassasalar tashkil etilishi natijasida o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimi shakllana boshlagan. XX asrga kelib pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari: nazariy-metodologik, psixologik-pedagogik, metodik va amaliy tayyorgarlik unsurlari esa yanada takomillashdi.



K.S. Maxmuryan chet tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini psixologik-pedagogik, metodik, kommunikativ, filologik, umumiy madaniy, axborot, ijtimoiy va boshqaruv kompetensiyalarining uzviy birligi sifatida talqin qiladi [2; 75]. I.M. Tuxtasinov esa bo'lajak mutaxassis tayyorlashda milliy madaniyat, til, mentalitet va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining chuqur anglanishi zarurligini ta'kidlaydi [14; 55].

Ye.S. Mityushova ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini asosiy, maxsus va tayanch kompetensiyalarga ajratadi. Maxsus kompetensiyalar maktabgacha yoshdagilarga ingliz tilini o'qitishning o'ziga xosligini aks ettiradi va metodik, nutqiy, amaliy, o'yin, aktyorlik, adaptiv va musiqiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

A.M. Kozlova bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagogu ingliz tilini o'rgatishda quyidagi kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini qayd etadi: analitik fikrlash, pedagogik muloqot va hamkorlikni tashkil etish, ta'limiy jarayonni rejalashtirish, pedagogik diagnostika, bolaning rivojlanishiga individual yondashuv, estetik rivojlantiruvchi muhit yaratish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash [5].

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tizimida ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan integrativ jarayon sifatida qaraladi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish ta'lim jarayonining ilmiy asoslanganligini, o'qitish usullarining samaradorligini aniqlash va takomillashtirishni ta'minlaydigan muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayon pedagogik tajriba, nazariy tahlil va amaliy tekshirish asosida yangi metodik yondashuvlarning amaliy qiymatini aniqlashga xizmat qiladi. Tajriba-sinov ishlari o'qituvchi faoliyatining ilmiy-tadqiqot jihatini kuchaytirib, ta'lim sifatini oshirish, innovatsion metodlarni sinovdan o'tkazish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish to'rt bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilarni tashkil qiladi:

tashxis va bashorat qilish;

tashkiliy tayyorgarlik;

amaliy bosqich;

umumlashtiruvchi bosqichlardir (1-jadvalga qarang):

1-jadval

Tajriba-sinov bosqichlari tavsifi

No	Tajriba-sinov ishining bosqichlari	Tashkil etilgan jarayonlar
1.	Tashxis va bashorat qilish bosqichi	- Pedagogik tahlil markazlari belgilandi;- Muammo o'rganildi va tadqiqot mavzusi shakllantirildi;- Tajriba-sinov ishining maqsadi va vazifalari aniqlab olindi.
2.	Tashkiliy tayyorgarlik bosqichi	- Tajriba-sinov maydoni hamda ishtirokchilar tarkibi shakllantirildi;- Pedagogik jarayonning metodik tavsifi ishlab chiqildi;- Tajriba-sinov ishlari uchun didaktik ta'minot tayyorlandi.



No	Tajriba-sinov ishining bosqichlari	Tashkil etilgan jarayonlar
3.	Amaliy bosqich	- Ta'kidlovchi, shakllantiruvchi va nazorat qiluvchi tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi;- Tajriba-sinov ishlari tajriba va nazorat guruhlarida bosqichma-bosqich olib borildi.
4.	Umumlashtiruvchi bosqich	- Tajriba-sinov natijalarini umumlashtirish algoritmi ishlab chiqildi;- Tatbiq etish va amaliy qo'llash bosqichi amalga oshirildi.

Jadvalda ko'rsatilgan, tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichida tadqiqotimizga doir falsafiy, tarixiy, pedagogik va psixologik manbalar o'rganildi, muammoning hozirgi holati bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqildi.

Mashg'ulotlar 6 oy davomida, har haftada 2 marta tashkillashtirilib, bu muddatda nazorat guruhlarida darslar an'anaviy tarzda o'tkazildi. Didaktik ta'minotga asoslangan ta'lim yondashuvining asosiy maqsadi - har bir bosqichda qo'llanilgan ta'lim veb-resurslarining formatlari, har bir formatlarni osondan murakkabi tomon qo'llashni, ilmiy-pedagogik dissertasion tadqiqot natijalarini aprobatsiyadan o'tkazish, tajriba-sinov ishlarini guruhlarda bosqichma-bosqich holatda amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Jumladan, 2021 yil O'zbekiston Milliy Universiteti A-OT-2021-419 raqamli "Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish kursining elektron platformasini yaratish (Rre-school PDP)" nomli innovasion loyihasida qatnashib, Respublika bo'yicha g'oliblardan biri bo'lishga sazovor bo'ldik. Ushbu tadqiqot ishimizning natijalaridan platformada zamonaviy pedagogik metodlarga mos materiallar hamda veb-resurslar yordamida mashg'ulot mazmunini boyitishda, ingliz tili o'qituvchilarining onlayn bilimni rivojlantirishda, shu bilan birgalikda, bolalarning lug'at boyligini oshirishda, tinglab tushunish, gapirish va kognitiv hamda motorika mahoratlarini rivojlantirishga mo'ljallangan turli o'yin, qiziqarli mashg'ulotlar va tarqatma materiallardan foydalanib, "Tiny English", "Bunny English" nomli metodik qo'llanmalar va yillik ish rejalar tayyorlashda o'z hissamizni qo'shdik. Shuningdek, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)" yo'nalishi bo'yicha bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodlarini ishlab chiqib, kelajakda, o'z ustida uzluksiz ishlash jarayonida, veb-resurslar formatini to'g'ri qo'llay olish mashqlarini samarali ishlab chiqish tizimini shakllantirish bo'yicha takliflar berdik. Xususan, MTTda ingliz tilini o'rgatish uchun 5-6 yoshli tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan "Sunny English" nomli darslikni yaratishda yaqindan yordam berdik hamda bir qator metodik usullar va tavsiyalar ishlab chiqdik.

MUHOKAMA

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish, ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tilni o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy



ta'lim vositalari hamda veb-resurslardan foydalanish asosida o'quv jarayonining sifatini oshirish pedagogik faoliyatni raqamli platformalar asosida tashkil etishni taqozo etadi.

O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, pedagoglarning 86 foizi va talabalarning 78 foizi umumkasbiy fanlar bloki tarkibiga kiruvchi "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitish metodikasi" hamda "Ingliz tili amaliy kursi" fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni ta'lim veb-resurslari asosida rejalashtirish bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ta'kidlagan. Bu esa dars jarayonida veb-resurslardan foydalanish natijadorligini ko'rsatadi.

Talabalar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovnomasi (9-ilova) natijalari shuni ko'rsatdiki, ularning 89,7 foizi maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi o'qituvchi ingliz tili bilan bir qatorda "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitish metodikasi" fanini ham chuqur bilishi zarur, 91,8 foizi "Ingliz tili amaliy kursi" fanini, 80,2 foizi esa "Chet tilini o'rganishda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)" fanining ahamiyatli ekanini qayd etgan. "Siz maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili o'qituvchisi mutaxassisligini tanlashingizga nima turtki berdi?" degan savolga javoban, 51,7 foiz (120 nafar) talaba mazkur yo'nalishni bolalarga ingliz tilini o'rgatishga bo'lgan qiziqishi va shaxsiy istagi tufayli tanlaganini bildirgan. 13,8 foiz talaba jamiyatda aynan shu mutaxassislikka ehtiyoj yuqoriligini asosiy omil sifatida ko'rsatgan, 10,7 foiz talaba esa oliy ma'lumot diplomiga ega bo'lish maqsadini ilgari surgan. 6,2 foiz talaba chet tilini chuqur o'zlashtirish istagini, 1,2 foiz talaba esa boshqa tanlov imkoni bo'lmagani bois mazkur yo'nalishga tasodifan yo'naltirilganini bayon qilgan. Qolgan javoblar esa talabalarning bolaligidan bog'cha ochish orzusiga ega bo'lgani va shu sohani puxta egallashni istashi bilan izohlangan.

Kasbiy tayyorlik darajasini aniqlashga qaratilgan navbatdagi savol – "Universitetni bitirganingizdan keyin qayerda ishlashni xohlaysiz?" – ga berilgan javoblar tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalarning 61,6 foizi magistraturada tahsilni davom ettirish niyatida ekanini bildirgan; 21,6 foizi kelajakda bolalar bog'chasi yoki umumta'lim maktabida ingliz tili o'qituvchisi sifatida ishlashni rejalashtiradi; 14,2 foizi ingliz tili talab qilinadigan kompaniya yoki nufuzli tashkilotlarda faoliyat yuritishni maqsad qilgan; atigi 2,6 foiz talaba esa hali o'z kasbiy kelajagini aniqlamaganini bildirgan. Ushbu ma'lumotlar bo'lajak maktabgacha ta'lim ingliz tili o'qituvchilarida kasbga nisbatan ma'lum darajada motivatsiya, qiziqish va ishtiyoq shakllanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning barchasi qizlar ekanligi, mazkur yo'nalishga asosan qiz talabalarning qiziqishi yuqori ekanini anglatadi.

Pedagoglar o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovi natijalari ham tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishida dars berayotgan pedagoglarning qariyb 77 foizi birinchi bo'limda keltirilgan barcha fanlarni o'qituvchi ingliz tili bilan bir qatorda egallashi lozimligini ma'qullagan. Talabalar javoblari bilan solishtirilganda, o'rtacha ko'rsatkich 77,8 foizni tashkil etib, pedagog va talabalar fikrlarining uyg'unligini ko'rsatadi.

Ikkinchi bo'limdagi "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish uchun o'qituvchining tilni bilish darajasi qanday bo'lishi kerak, deb hisoblayman" degan savolga pedagoglarning 14 foizi va talabalarning 31 foizi C1 darajani talab etishini bildirdi. Bu



natija “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda xorijiy til (ingliz tili)” yo‘nalishida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning til bilish darajasini yuqori bo‘lishi shart emas, degan qarashlar ham mavjudligini ko‘rsatadi. 3.1-savol natijalariga ko‘ra, pedagoglarning 46 foizi amaliyot jarayonida talabalar bolalar bilan ishlashda qator qiyinchiliklarga duch kelayotganini ta‘kidlagan.

8–10-savollar mazmun jihatidan farq qilgani bois alohida tahlil qilindi. 8-savolga ko‘ra, pedagoglarning 69 foizi talabalarning ingliz tilini bilish darajasi yetarli ekanini bildirgan. Shuningdek, pedagoglarning 86 foizi va talabalarning 78 foizi umumkasbiy fanlar bloki tarkibidagi “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda ingliz tilini o‘qitish metodikasi” hamda “Ingliz tili amaliy kursi” fanlari doirasida amaliy mashg‘ulotlarni ta‘lim veb-resurslari asosida loyihalash talabalar kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ijobiy samara berishini ta‘kidlagan. Bu esa veb-resurslardan foydalanish o‘quv jarayonini sezilarli darajada samarali qilishi mumkinligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, ta‘lim veb-resurslariga alohida e‘tibor qaratish zarur. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

- Ko‘pchilik o‘qituvchilar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ta‘lim veb-resurslarini to‘g‘ri loyihalash va ulardan foydalanishga oid tayyorgarligi yetarli emasligini ta‘kidlaydi. Buning sababi shundaki, ta‘lim veb-resurslari asosida kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida taklif etilayotgan yetti format bo‘yicha texnologik jihatlar pedagogik va metodik jihatlardan ustun kelmoqda, bu esa axborot texnologiyalari sohasida umumiy nazariy tayyorgarlikning yetishmasligiga olib kelmoqda;
- Mavjud muammolarning asosiy omillaridan biri sifatida o‘qituvchilar uchun tegishli o‘quv qo‘llanmalari, uslubiy ishlanmalar va ta‘lim veb-resurslari bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalar yetishmasligi ko‘rsatiladi.

Tajriba-sinov maydonlarida “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda xorijiy til (ingliz tili)” yo‘nalishi bo‘yicha yuqori bosqich talabalarini qamrab olgan tadqiqot metodlari hamda o‘qitish metodikasi (metodik va didaktik ta‘minot) asosida olib borilgan ishlar ta‘lim veb-resurslari bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samarali vosita ekanini ko‘rsatdi.

Shu nuqtai nazardan, talabalarning raqamli savodxonligini faqat turli fanlar kesimida bilvosita rivojlantirish bilan cheklanib qolmasdan, balki raqamli kompetensiyaning mazmuni, mehnat bozoridagi ahamiyati va kasbiy o‘shisdagi o‘rnini bevosita ochib berish maqsadga muvofiqdir. Bu esa talabalarda o‘z raqamli kompetensiyasini rivojlantirishga bo‘lgan ichki motivatsiyani oshiradi, mustaqil ta‘lim olib borish ehtiyojini kuchaytiradi, zamonaviy mehnat bozoridagi tendensiyalarni anglashga va xalqaro maydonda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

2. Umumkasbiy fanlar blokiga kiruvchi, xususan, ingliz tili fanlari doirasida talabalarning kasbiy kompetensiyasini ta‘lim veb-resurslari orqali shakllantirish maqsadida “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda xorijiy til (ingliz tili)” yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish zarur. Bu jarayonda talabalarning kelajakda maktabgacha ta‘lim tizimida faoliyat yuritishini inobatga olgan holda, ularning raqamli savodxonligini oshirish, hamkorlikda ishlash, tanqidiy fikrlash, ijodiy va kreativ



yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashq va topshiriqlarni, xususan, ta'lim veb-resurslarining yetti formati asosida tuzilgan topshiriqlarni ko'paytirish lozim. Tadqiqot davomida 5112200 – "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha 3.00 – umumkasbiy fanlar bloki asosida tahsil olayotgan yuqori bosqich talabalari uchun ta'lim mazmuni tahlil qilindi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) fanining maqsad va vazifalarini, mazmuni, metodlari, baholash mezonlari va kutilayotgan natijalarini aniq belgilashda pedagoglarga ilmiy-metodik ko'mak ko'rsatish zarur. Talabalar uchun muammoli va ijodiy xarakterdagi mashqlarni bajarish jarayonida o'zlarining ma'lumot so'rovlarini to'g'ri shakllantirish va internet resurslaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida ta'lim veb-resurslaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatadi. Pedagoglar va talabalarining aksariyati mazkur yondashuvni qo'llab-quvvatlagan holda, veb-resurslar metodik tayyorgarlikni boyitish, dars jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutishini ta'kidlagan.

Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalar va interfaol platformalarni integratsiya qilish talabalarda til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi, o'qituvchilarga esa yangi metodik yechimlarni qo'llash va innovatsion yondashuvlarni sinovdan o'tkazish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, tajriba davomida "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)" yo'nalishidagi ta'lim mazmunini yangilash, o'quv dasturlari va darsliklarni raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va ijodiy faoliyat kompetensiyalariga tayangan holda takomillashtirish zarurligi aniqlandi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi – bu faqat lingvistik bilim va metodik malakalar yig'indisi emas, balki raqamli, kommunikativ va innovatsion kompetensiyalarni o'z ichiga olgan kompleks kasbiy tayyorgarlik tizimidir. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida veb-resurslardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliy mashg'ulotlar tarkibiga integratsiya qilish hamda kasbiy rivojlanishni uzluksiz qo'llab-quvvatlash zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalari qatorida e'tirof etiladi.

References:

1. Adol'f, V.Ya. (1998). *Professional'naja kompetentnost' sovremennogo uchitelja: Monografija* [Professional competence of the modern teacher]. Krasnojarsk: Krasnojarskij gosudarstvennyj universitet. (310 pp.)
2. Belonozhkina, E.G. (2009). Professional'naja kompetencija uchitelja inostrannogo jazyka [Professional competence of a foreign language teacher]. *IJaSh*, (5), 74–77.



3. Gururajao, S. M., Everstova, V., Potekhina, E., Moydinova, E., Nikulushkin, A., & Muracova, N. (2025, April). Assessing Academic Achievement in Adaptive Learning. In Computer Science On-line Conference (pp. 445-453). Cham: Springer Nature Switzerland.
4. Kamariddinovna, M.E. (2022). Professional Competence Structure of Future Pre-school English Teachers. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 15-18.
5. Kamariddinovna, M.E. (2022). The structure of professional competence of preschool English teachers. *International Journal of Pedagogics*, 2(07), 1-4.
6. Kozlova, A.M., Nikiforova, E.V., & Skopinova, N.A. (2004). *Doshkol'noe obrazovanie: Uchebno-metodicheskoe posobie* [Preschool education: A teaching manual]. Moscow: CGL. (80 pp.)
7. Löwisch, M. (2000). *Kommentar zum Kündigungsschutzgesetz* (8th rev. ed.). Heidelberg: Verlag Recht und Wirtschaft. (648 pp.)
8. Mezenceva, O.I., & Kuznecova, E.V. (2013). *Psixologo-pedagogicheskie uslovija razvitija professional'noj kompetentnosti sovremennogo pedagoga: Monografija* [Psychological and pedagogical conditions for developing teachers' professional competence]. Novosibirsk. (158 pp.)
9. Moydinova, E. (2024). Effective strategies for teaching in the digital age. In *Fergana state university conference*.
10. Moydinova, E., & Uzakbaeva, A. (2024). Exploring the efficacy of internet resources in developing speaking proficiency among 10th grade students. *Talqin va tadqiqotlar*, 9, 46.
11. Pisarenko, A.N. (2011). *Formirovanie professional'noj mezhkul'turnoj kompetentnosti studentov* [Developing students' professional intercultural competence] (Candidate of Pedagogical Sciences dissertation). Saratov. (202 pp.)
12. Risqulova, K.Dj. (2017). *Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sociolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi* [System of forming sociolinguistic competence of future English teachers] (Doctoral dissertation). Tashkent. (132 pp.)
13. Roth, H. (1976). *Paedagogische Anthropologie*. Hermann Schroedel Verlag KG. (503 pp.)
14. Shashok, V.N., & Sapun, I.N. (2013). *Povyshenie kvalifikacii vospitatelej doshkol'nogo obrazovaniya, imejushhih vtoruju kvalifikacionnuju kategoriju* [Professional development of preschool educators with the second qualification category]. In *Akademija poslediplomnogo obrazovaniya* (Vol. 1). Minsk: APO. (60 pp.)
15. Tuxtasinov, I.M. (2018). *Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish* [Developing translators' professional competencies based on equivalence phenomenon] (Doctoral dissertation). Tashkent. (203 pp.)